

3-Mavzu: Yovlashmoq — oson, yarashmoq — qiyin

Darsning maqsadi:

- Abdurahmon Akbarning “Bir qishloq bolalari” she’ri bilan tanishtirish;
- o’quvchilarda o’zaro hurmat hissini tarbiyalash;
- ifodali o’qish, gap tuzish malakasini shakllantirish .

Tayanch so’zlar: xushmuomala bo’lish, bir-birini kamsitmaslik.

Didaktik materiallar: mavzuga mos rasmlar.

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqqa)

Darsni tashkil qilish.

Faollashtiruvchi mashq: “Qarsaklar” mashqi. O’qituvchi qarsak chaladi, o’quvchilar qaytaradi.

II. O’tilganlarni takrorlash. (10 daqiqqa)

Rivoyat mazmunini so’zlab beriladi. Siz yana “Do’stlik” haqida o’qigan asarlar mazmuni bilan o’rtoqlashiladi.

III. Darsning asosiy qismi. (28 daqiqqa)

Amaliy topshiriq: “*Aqliy hujum*” metodi.

Muhokama uchun savol.

“Yovlashmoq-oson, yarashmoq-qiyin” deganda nimani tushunasiz?

Mavzuni tushuntirish.

Darslikda berilgan rasm kuzatiladi. Suhbat uyushtiriladi. O’quvchilarga quyidagi savollar beriladi.

1. Rasmda kimlar tasvirlangan?
2. Ular nima qilishyapti?
3. Ularning urishib qolishiga nima sabab bo’lgan deb o’ylaysiz?
4. Bunday holatning oldini olish uchun nima qilish kerak?

O’quvchilarning fikri umumlashtiriladi va to’ldiriladi.

Yodda tuting!

Til insonning ham do'sti, ham dushmanidir. Dushmanga muloyim so'z aytib, do'stga aylantirish, do'stga achchiq so'z aytib, bir lahzada dushmanga aylantirish mumkin.

Matni ustida ishlash. Muallif haqida qisqacha ma'lumot beriladi.



Abdurahmon Akbar o'zbek bolalar shoiri. Toshkent yaqinidagi Niyozbosh qishlog'ida tavallud topgan. Uning **"Kichkintoy va paxtaoy"**, **"So'zlovchi yomg'ir"**, **"Ehtiyotkor toshbaqa"**, **"Yozning tug'ilgan kuni"**, **"Kuylayotgan bog' "**, **"O'yinqaroq bulutcha"**, **"O'rdakcham"**, **"Jonli savatcha"**, **"Uyquchining tushlari"** kabi kitoblari bor.

Abdurahmon Akbarning **"Bir qishloq bolalari"** she'ri navbatma-navbat o'qitiladi. She'r yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. She'r kimlar haqida?
2. Nima uchun ikki o'rtoq ikki yovga aylandi?
3. She'rda yana qaysi bolalarning ismlari tilga olingan?
4. Esh o'rnidan turib ularga nima dedi? Shu joyini she'rdan topib o'qing.
5. "Qahramon" bo'lish oson,

Nomusli bo'lmoq og'ir" misrasini qanday tushundingiz?

6. Sizning sinfingizda she'rdagi holat uchrab turadimi?
7. Bu holat boshqa takrorlanmasligi uchun nima qilish kerak deb o'ylaysiz?
8. She'rdan qanday xulosa chiqardingiz?

She'rni ifodali o'qiladi. She'r matnidagi notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.

dast – shartta, tez, birdan.

o'qraymoq – jahl, g'azab bilan qaramoq.

"Teskarisini top" mashqi.

"Do'st" so'ziga qarama-qarshi ma'noli sozlar topiladi: yov, dushman

She'r matnida uchragan qarama-qarshi ma'noli so'zlarni aniqlanadi. (o'rtoq-yov, baland-past, oson-og'ir...)

She'r mazmunini gaplarda ifodalab hikoya tuziladi. Hikoyada bolalarga tavsif beriladi va she'rning tarbiyaviy ahamiyatiga to'xtaladi.

“Oynadagi aks” mashqi.

Maqolning oynadagi aksini juftlikda o‘qitiladi va mazmuni yoritiladi.

Do‘st orttiramam desang,
Shirin suhbat qil.

Tez aytish musobaqasi o‘tkaziladi.

Donogina Durdona Duyoraga dugona.

Mashq daftari bilan ishlash.

Daftardagi topshiriq bajariladi.

She‘r matnida tilga olingan bolalarning ismlari topib yoziladi. O‘quvchilar she‘rdan chiqargan xulosalarini daftarga yozadilar. Bajarilgan ishlar muhokama qilinadi.

IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)

- She‘r nima haqida ekan?
- Bugungi o‘rganganlaringizni qaysi holatda kundalik hayotda qo‘llaysiz?
- Fikr to‘ldiriladi: *Do‘st tutinish uchun...*

V. Uyga vazifa. (1 daqiqa)

She‘rni ifodali o‘qing. Do‘stlik haqidagi maqollardan yod oling.

4-Mavzu: Do‘stlik– mustahkam rishta

Darsning maqsadi:

- Hidoyat Olimovaning “Chin do‘st” ertagi bilan tanishtirish;
- “Do‘stlik -mustahkam rishta” ekanligini tushuntirish;
- bog‘lanishli nutqini o‘stirish.

Tayanch so‘zlar: Qarg‘a, Chumchuq, yordam, bir-birini qo‘llash, mustahkam rishta.

Didaktik materiallar: mavzuga mos rasmlar.

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)